

O'QITISHNING ZAMONAVIY VOSITALARIGA QO'YILGAN TALABLAR

G'ulomova Dilobar Obid qizi

SHDPI talabasi

Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna

SHDPI katta o'qituvchisi

Negmatova Sevinch Ergash qizi

Qarshi davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16567397>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qitish vositalariga qo'yiladigan talablar va ularning didaktik jihatlari hamda o'qitish vositalarining turlari va tasniflanishi hamda o'quv jarayonida foydalanishning nazariy – metodik jihatlari yoritib berilgan. Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish natijasida o'qituvchilarga darslarni yanada samarali tashkil etish imkoniyati yaratilmoqda. Shuningdek, bu vositalar masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirib, har bir o'quvchiga individual yondashish imkonini beradi. Natijada, ta'lim sifati oshib, bilim olish jarayoni qulay va samarali bo'ladi.

Kalit so'zlar: O'qitish, zamonaviy vositalar, raqamli ta'lim, interaktivlik, elektron darslik, multimediya, masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt, virtual laboratoriya, innovatsiya, pedagogika, ta'lim sifati, texnologiya, metodika, interfaol ta'lim, onlayn kurslar, platforma, bilim, o'quvchi, o'qituvchi, adaptiv ta'lim, monitoring, baholash.

Абстрактный. В статье рассматриваются требования, предъявляемые к учебным пособиям, их дидактические аспекты, а также виды и классификация учебных пособий, теоретико-методические аспекты их использования в учебном процессе. Сегодня повсеместное внедрение цифровых технологий в систему образования создает возможности для учителей более эффективно организовывать уроки. Эти инструменты также расширяют возможности дистанционного обучения и позволяют осуществлять индивидуальный подход к каждому ученику. В результате качество образования повысится, а процесс обучения станет более удобным и эффективным.

Ключевые слова. Обучение, современные инструменты, цифровое образование, интерактивность, электронный учебник, мультимедиа, дистанционное обучение, искусственный интеллект, виртуальная лаборатория, инновации, педагогика, качество образования, технологии, методология, интерактивное образование, онлайн-курсы, платформа, знания, студент, преподаватель, адаптивное обучение, мониторинг, оценка.

Abstract. The three articles cover the requirements for teaching and the requirements for didactic control of the document, as well as the requirements for teaching methods and classification - methodological control. Today, the widespread introduction of software technologies in the education system allows teachers to organize lessons more effectively. It allows for an individual approach to each student. power, the quality of education increases, and the process of acquiring knowledge becomes convenient and effective.

Keywords: Teaching, modern food, computer education, interactivity, electronic textbook, multimedia, distance learning, artificial intelligence, virtual laboratory, innovation, pedagogy, quality of education, technology, methodology, interactive education, online courses, platform, knowledge, student, teacher, adaptive education, monitoring, use.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarning

rivojlanishi natijasida pedagogik jarayonlar yanada interaktiv va samarali tus oldi. O'qitishning zamonaviy vositalari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar va talabalarning bilim olish jarayonini soddalashtirish, shuningdek, ta'lim muhitini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish imkonini beradi.

Zamonaviy o'qitish vositalariga elektron darsliklar, multimediya materiallari, masofaviy ta'lim platformalari, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan dasturlar va virtual laboratoriyalar kiradi. Ushbu vositalardan foydalanish uchun ularning samaradorlik darajasi va qo'llash imkoniyatlari yuqori bo'lishi lozim. Bunday texnologiyalar an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda, ularning o'rnini bosadigan, muayyan bilimlarni tez va qulay tarzda o'zlashtirishni ta'minlaydigan vosita sifatida ham qaraladi.

Bo'lajak mutaxassislarining kompetensiyalarini shakllantirish va ularda kasbga oid bilim va axborotlarni davomiyligini oshirishda o'qitish vositalarining o'rni muhim hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish nafaqat, ta'lim muassasasidagi o'qitish vositalarining soni va turiga bog'liq bo'lib bo'lmay, balki ulardan foydalanish metodikasiga ko'p jihatdan bog'liqligi amaliyotda tasdiqlangan. Chunki o'quv dasturidagi mavzularni o'zlashtirish mavzu uchun zarur bo'lgan o'qitish vositalarining imkoniyatlarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish muhimdir. Buning uchun o'qituvchi o'qitish vositalarining imkoniyatlarini yaxshi bilishi zarur.

Ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri jarayonni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish va o'qitish vositalarini to'g'ri qo'llashga bog'liq.

Ta'lim jarayonida o'qitish vositalarning o'rni, ahamiyati va ulardan amalda foydalanishning umumiy metodikasi haqida so'z yuritishdan avval ularning lug'aviy ma'nosini anglash muhim hisoblanadi. Pedagogik adabiyotlar va qomusiy adabiyotlar tahliliga nazar tashlasak "Vosita"ga nisbatan turlicha qarash va ta'riflarni uchratishimiz mumkin.

Vosita - ma'lum ishni bajarish yoki faoliyatni amalga oshirishda qo'llaniladigan moslamalar, qurollar, qurilmalar majmuasi. Vosita - biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan narsa qurol. Dastak - biror xarakat uchun tayanch qilib olingan yoki tayanch bo'lib xizmat qiluvchi narsa.

Ta'lim vositalari – hajmli tabiiy obyektlar, obyektlarning tasviri, bosma vizual vositalar.

Shuningdek ta'limning texnik vositalarini quyidagicha tasniflash ham mavjud: Audio; Video; Audio-video.



O'z navbatida, o'qitish vositalari ham bir necha talablarga javob berishi o'rinlidir. O'qitish vositalariga qo'yiladigan bir necha didaktik talablar borki, bu talablarni bajarish o'quv texnikalarini o'quv jarayonida samarali qo'llash imkonini beradi. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quv texnikalarining ta'lim oluvchining psixologik va fiziologik xususiyatlariga moslashganligi;
- o'qitish vositalari faqatgina an'anaviy ta'lim jarayoniga mo'ljallanmasdan, balki zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish imkoniyatini ham berishi kerakligi;
- ta'lim oluvchilarning barcha sezgi a'zolariga ta'sir eta olishi va h.k.

O'qitish vositalarini ta'lim jarayoniga joriy qilish didaktika va metodika masalalariga u yoki bu darajada dahldor bo'lib, ta'lim metodlariga faol ta'sir etadi. Shuning uchun ham ularni ta'limga joriy qilish vositalarning o'zi va ularni qo'llashning yo'llari va shart sharoitlari ta'lim muassasalari tomonidan ularga qo'yiladigan ham didaktik, ham tashkiliy-metodik talablarni qondirgan taqdirdagina pedagogik jihatdan o'zini oqlaydi. Bundan tashqari texnik qurilmalar va o'qitishning texnik vositalari fan texnika taraqqiyotining ham bir qancha dolzarb texnik talablarini qondirishi zarur bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda o'qitish vositalariga talablar ma'lum tuzilma va iyerarxiyaga ega bo'lgan tizimdan iborat bo'lishi kerak. Uning tuzilmaviy elementlari sifatida o'qitish vositalariga didaktik, texnik va texnologik talablarni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Didaktik talablar - bu o'qitish vositalarining mazmundorlik jihatlariga talablardir. Bular o'qitish vositalarini ta'limda qo'llashning maqsadlari, vazifalari, qo'llanilishi sohalarini aniqlaydi, qolaversa axborotni tanlash tamoyillari va metodlarini, uning xarakterini, axborotni

shakllantirish va uning masshtablarini aniqlaydi. Bunday talablarning asosini ta'lim tamoyillari tashkil qilishi zarur.

Ba'zi adabiyotlarda ushbu talablarga qo'shimcha ravishda metodik va pedagogik talablar ham uchraydi.

Metodik talablar – bu o'qitish vositalarining mazmunini ochib berishning vositalari va metodlariga talablar. Ular ta'limni texnikalashtirishning pedagogik shartini va ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida texnik vositalarni qo'llashning rasionalligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'qitish vositalariga qo'yiladigan pedagogik talablar esa o'z navbatida unga qo'yiladigan didaktik talablar bilan o'xshash, deyarli bir xil ma'noni, mazmunni o'zida aks ettiradi. Shuning uchun undan foydalanishda didaktik talablar deb qabul qildik. Chunki, didaktika pedagogikaning ajralmas qismini, negizini tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida foydalaniladigan o'qitish vositalarini maqbulini tanlash va bu tanlangan vositalar pedagogik talablarga javob berishi kerak. Bu esa o'z navbatida pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Umumiy holda o'qitish vositalari quyidagi pedagogik talablarga javob berishi kerak:

1. Har bitta o'quv mavzusi, o'quv elementlari uchun o'qitish vositalari ishlab chiqilishi va aniqlanishi;
2. O'qitish vositalari o'quv dasturi, darslik mazmuni va didaktik o'qitish tamoyiliga mos kelishi;
3. O'qitish vositalari o'quvchilarda o'qishga va o'zlashtirishga, mehnat qilish, kuzatuvchanlik ham qiziquvchanlikni o'stirishga xizmat qilishi;
4. O'qitish vositalari o'quv-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismlari: darsning maqsadi, mazmuni, shakli va metodlari bilan moslashtirilgan bo'lishi;
5. O'qitish vositalari yuqori darajada ko'rgazmalilikka va estetik ko'rinishga ega bo'lishi;

Demak, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalariga qo'yiladigan barcha talablarni bilish, ulardan to'g'ri foydalanish o'quv-tarbiya jarayonini samarali olib borilishini ta'minlaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdievna, Axmedova Barno. "USE OF PROGRAMMING LANGUAGES IN SOLVING TECHNICAL PROBLEMS." *International scientific-online conference International scientific-online conference*.
2. Barno Abdiyevna Axmedova. "TA'LIM XIZMATLARINI SINERGIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI". ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. 2025/2. Страницы 170-175
3. Barno Abdiyevna Axmedova. "RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA TA'LIM XIZMATI SIFATINI OSHIRISHNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARI". ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. 2025/2. Страницы 176-180.
4. Axmedova, Barno. "Ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning nazariy-ilmiy asoslari." *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT* 3.2 (2025).
5. Mukhitdinov Khudayar Suyunovich, Axmedova Barno Abdiyevna. "TRANSFORMATION OF EDUCATIONAL BUSINESS LEARNING PROCESSES IN IMPROVING THE QUALITY OF REGIONAL EDUCATIONAL SERVICES". *Journal of Survey in Fisheries Sciences*. 2023/3/9.

Страницы 3200-3216.

6. Mukhitdinov Khudoyar Suyunovich, Axmedova Barno Abdiyevna. "Econometric modeling and forecasting of educational services to the population of the region". To Secure Your Paper As Per UGC Guidelines We Are Providing A Electronic Bar Code. 2021/1. Страницы 241-251.
7. Барно Абдиевна Ахмедова. "Рақамли иқтисодиёт шароитида таълим хизмати сифатини оширишнинг моҳияти ва вазифалари". ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ. 2022. Страницы 28-31.
8. Барно Абдиевна Ахмедова. "Ways to Improve the Quality of Educational Services Using ICT". Eurasian Journal of History, Geography and Economics. 2022. Страницы 34-38.
9. Барно Абдиевна Ахмедова. "Econometric Methods Aimed at Improving the Quality and Digitalization Of Educational Services". Eurasian Research Bulletin. 2022. Страницы 66-70.
10. Барно Абдиевна Ахмедова. "Raқamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim xizmati sifatini oshirishda ekonometrikadan foydalanish metodikasi". ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ. 2022. Страницы 42-45.
11. Барно Абдиевна Ахмедова. "Ta'limda raqamli iqtisodiyot muammolari tahlili". O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA TA'LIM-TARBIYA VA ILM-FAN SOHALARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI. 2022/5. Страницы 639-642.
12. Барно Абдиевна Ахмедова. "Raқamli iqtisodiyotda ekonometrik usullardan foydalanib ta'lim xizmati sifatini oshirish". O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA TA'LIM-TARBIYA VA ILM-FAN SOHALARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI. 2022/5. Страницы 642-644.
13. Барно Абдиевна Ахмедова. "Raқamli iqtisodiyotda ta'lim xizmatlarini takomillashtirish". O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA TA'LIM-TARBIYA VA ILM-FAN SOHALARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI. 2022/5. Страницы 644-646.
14. Akhmedova Barno Abdiyevna. "PRINCIPLES OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION BASED ON THE USE OF ICT". Journal of Management Value & Ethics (A quarterly Publication of GMA). 2023. Страницы 48-59.
15. Барно Ахмедова. "РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ". Международная конференция академических наук. 2023/3/4. Страницы 8-24.
16. Барно Ахмедова. "ДИСТАНЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ". Development of pedagogical technologies in modern sciences. 2023/3/4. Страницы 11-26.
17. Barno Axmedova. "MASOFAVIY TA'LIM IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITDAGI O'RNINI VA AHAMIYATI". Наука и технология в современном мире. 2023/3/5. Страницы 63-73.
18. Barno Axmedova. "MASOFAVIY TA'LIM IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITDA ASOSIY OMIL SIFATIDA". Наука и технология в современном мире. 2023/3/5. Страницы 74-84.